

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA KO'ZI
OJIZ BOLALARNI O'QITILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR**

Qodirov Valijon Abdurahmonovich

Andijon davlat pedagogika instituti professori, p.f.d.

vqodirov@gmail.com

Zumradxon Astanova Toxirovna

ADPI doktoranti

zumradastanova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ko'zi ojiz bolalar musiqa ta'limining xorijda va yurtimizda nechog'lik yo'lga qo'yilgani, shuningdek, olib borilgan izlanishlarga qisqacha to'xtalgan. O'qitishda yuzaga keladigan muammolar qayd etilib, ularni hal etish bo'yicha zarur tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'zi ojiz bolalar, musiqa savodi, tiflopedagogik metodlar, muammolar, yechimlar.

Аннотация: В статье кратко рассказывается о том, как музыкальное образование детей с нарушениями зрения было налажено за рубежом и в нашей стране, а также о проводимых исследованиях. Отмечаются проблемы, возникающие при обучении, и даются необходимые рекомендации по их решению.

Ключевые слова: слепые дети, музыкальная грамотность, педагогические методы, проблемы, решения.

Abstract: The article briefly describes how musical education for children with visual impairments has been established abroad and in our country, as well as ongoing research. The problems that arise during training are noted and the necessary recommendations for their solution are given.

Keywords: blind children, musical literacy, typhlopedagogical methods, problems, solutions.

Kirish: Musiqa va san'at maktablarida nogiron bolalarni o'qitish muammosi hozirgi paytda jamiyatimizning dolzarb muammolaridan sanaladi. Ushbu toifadagi bolalarning sog'lom bolalar bilan bir qatorda to'liq ta'lim jarayoniga qo'shilishiga imkon beradigan zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish juda muhimdir. Shu sababli mazkur masalaga xorijda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratila boshladi. Bu borada rus pedagogikasida bir qator diqqatga sazovor ishlar olib borilgani kuzatiladi. Alohida musiqa asboblari, shuningdek, umumiy xarakterdagi musiqa ta'limi bo'yicha izlanishlarga guvoh bo'lamiz. Masalan, G.V.Nikulina ko'zi ojizlar ta'limining mazmuni va tashkil etilishini maxsus qo'llanmada [3] yoritgan bo'lsa, V.N.Kulakov ko'zi ojiz musiqachilarda kompensatsion omillarning shakllanishini o'quv jarayonini optimallashtirish sharti sifatida ko'rib chiqib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [4].

L.Y. Shkadina esa ko'zi ojiz bolalarga musiqa o'rgatishda tipik muammolar hal qilish yuzasidan alohida qo'llanma [5] yozgan. Shuningdek, A.Kalinina [6], Y.Antonova, N.Didenko [7] kabi olimlarning ham diqqatga sazovor maqola, qo'llanmalarini qayd etish joiz.

O'zbek metodikasi bu borada boy ilmiy manbalarga ega deb ayta olmaymiz. Asosan mutaxassislarning tezis va maqolalari to'g'risida so'z yuritishimiz mumkin. M.Inatullayev maqolasida Yevropa tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalar uchun musiqiy ta'limda innovatsion usullarni moslashtirish va joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan [8]. Unda ko'zi ojiz bolalar musiqa ta'limiga kirishda duch keladigan muammolar muhokama qilinadi va innovatsion usullarni qo'llash orqali ushbu to'siqlarni yengib o'tish strategiyalari taklif etiladi. D. Namozova va Z.Astanovalarning "Ko'zi ojiz yoshlarning musiqiy savodxonligini takomillashtirish yo'llari" nomli maqolasida [9] ko'zi ojiz yoshlarning musiqiy bilimlarni egallashlari uchun maxsus o'quv adabiyotlarini yaratish to'g'risida fikrlar bayon etilgan. S.Erko'ziyev inkluziv ta'lim sharoitiga diqqat qaratib, ko'zi ojiz talabalar musiqiy idrokini shakllantirishda "gamefikatsiya" metodlaridan foydalanishni tavsiya qilgan [10].

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Yurtimizda barpo etilgan Bolalar musiqa va san'at maktablarida sog'lom bolalar bilan birgalikda jismoniy imkoniyati cheklangan, shu jumladan, ko'zi ojiz bolalar ham o'qitiladi. Davlatimiz rahbari ko'zi ojiz yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzolaganlar. Jumladan, 18.04.2022-sanadagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli qarorida: "Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov), Xalq ta'limi vazirligi (B.Saidov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda "Nurli maskan" maktablarida san'at (musiqa) yo'nalishini rivojlantirish, o'quvchilarning san'at yo'nalishidagi iqtidorlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san'at maktablariga biriktirsin" [1] deya ko'rsatma berganlar. Shunday bo'lsa-da bugungi kunda ko'zi ojiz bolalarning musiqa savodi bo'yicha sifatli ta'lim olishlarida o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Musiqa savodi musiqa ta'limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanib, o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy uquvini o'stirish va nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatni o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib

qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda – qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kim tomondan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir.

Muhokama va natijalar. Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan yakka va guruhli dars mashg'ulotlarida qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun o'qituvchilar tiflopedagogik metodlardan xabardor bo'lishlari zarur. Afsuski, bugungi kunda ushbu metodlarni o'rgatuvchi birorta ham qo'llanma mavjud emas, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida ham bu masalaga e'tibor qaratilmaydi, ko'zi ojiz bolalar uchun darsliklar ham haligacha joriy etilmagan. Ularning sog'lom tengdoshlari qatori sifatli bilim olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan. Pedagoglar ularga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bilim berishga harakat qiladilar. Ko'zi ojiz bolalar bilan ishlashda ko'pincha og'zaki metod qulaydek tuyuladi [6,158]. Ayniqsa, sog'lom pedagoglar "Ko'zi ojiz bolalarning xotirasi sog'lom bolalarga qaraganda bir muncha kuchliroq" deb hisoblaydilar. Aslida bu fikr xatodir, hamma ko'zi ojiz bolalar ham esda saqlash qobiliyatiga ega emas. Ular ko'pincha davolanish chog'ida ko'rishni yaxshilash va og'riqni qoldirish uchun, ko'z bo'yicha o'tkaziladigan jarrohlik amaliyotida qo'llaniladigan dori-darmonlarni qabul qilish ta'sirida xotirasining susayishidan aziyat chekadilar. Qolaversa, ularda doimiy ravishda yoki ba'zan kechadigan ruhiy tushkunlik ham bilim olishga, yashashga bo'lgan ishtiyoqlarini pasaytiradi. Shuning uchun ham "Ta'limda bunday bolalarga bee'tibor bo'la olmaymiz, ularga mehr va motivatsiya berishdan to'xtamaslik lozim" [2]. Bolalar musiqa va san'at maktablari duch kelgan bolani emas, faqat iqtidorli bolalarni qabul qilishini inobatga olsak, ushbu maktablarda o'qiyotgan ko'zi ojiz bolalar ham o'z musiqiy iqtidoriga ega bo'lgan bolalardir. Ular esa nota yozuvi, musiqa savodxonligiga oid ko'plab belgilar va musiqiy ma'lumotlarni yoza olmaganliklari uchun eslab qolishga majburlar. Bilimlar bazasi kengaygani sari har qanday kuchli xotira egasi ham miyasida og'irlikni his etadi va ayrim ma'lumotlarni asta-sekin unuta boshlaydi. Natijada bolaning bilim olishida qiyinchilik yuzaga keladi va u sog'lom bola kabi sifatli bilim ololmaydi. Odatda ko'zi ojiz o'quvchi musiqiy eshitish qobiliyati (sulh) yordamida ijro amaliyoti bo'yicha mahoratli bo'la oladi, biroq u o'zi chalgan yoki kuylagan asaridagi tovushlarning cho'zimlarini va taktlarning kuy o'lchoviga mutanosibligini, kuyning dinamikasi va kayfiyatini tushuna olmaydi.

Fikrimizcha, nota yozuvidan bexabar sozandaning ijrosi harf tanimaydigan nutq so'zlovchining talaffuzi kabi badiiylikdan yiroqdir. Bunday ijrochilar xalqimiz tilida "havaskor" deb ataladi. Havaskor ijrochi bo'lish uchun esa musiqiy ta'lim olish shart emas, unga iste'dodning o'zi kifoyadir. Bolalar musiqa va san'at maktablarining faoliyati har bir

ixtisoslik bo'yicha o'ziga xos fan dasturi asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, havaskorlikka emas, aksincha, professionallikka tayanadi [3,38].

Bolalar musiqa va san'at maktablarida Ko'zi ojiz bolalarning sog'lom bolalar kabi sifatli ta'lim olishga erishishlari uchun ularning ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan davlat organlari, tegishli vazirliklar quyidagi zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi maqsadga muvofiqdir:

1) ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus sinflar (filiallar)ni tashkil etib "Nurli maskan" maktab-internatlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotgan Bolalar musiqa va san'at maktablarining maxsus sinf xonalarini (maktab-internat binosidagi) zamonaviy maktablarga xos jihozlash.

2) ko'zi ojiz o'quvchilarga sifatli ta'lim berish maqsadida ular o'qiyotgan musiqiy yo'nalish bo'yicha nomutaxassis o'qituvchilarni mutaxassis o'qituvchilar bilan almashtirish;

3) ko'zi ojiz o'quvchilarga ta'lim berayotgan musiqa o'qituvchilarini Brayl nota yozuvi va musiqiy tiflopedagogik metodlarni o'rgatish bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

4) ko'zi ojiz o'quvchilar uchun tegishli mutaxassisliklar bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklarni Brayl yozuvida nashr etish;

5) Brayl nota yozuvini biladigan ko'zi ojiz mutaxassis o'qituvchilarni (hozirda ishsiz yoki umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, madaniyat markazlari va hokazolarda maxsus shart-sharoitsiz qiyinchilikda ishlayotgan) ushbu ta'lim muassasalariga jalb etish, ularning hayotiy va pedagogik tajribalaridan foydalanish;

6) ko'zi ojiz musiqa o'qituvchilarining o'z ustida ishlashlari, darsda ko'zi ojiz o'quvchilar bilan shug'ullanishlaridagi duch keladigan qiyinchiliklarida yordamchi sifatida, ish faoliyatiga doir hujjatlarni yuritishlari uchun o'qib beruvchi tarjimon kotiba ("Nurli maskan" maktab-internatlaridagi kabi) bilan ta'minlanishlarida amaliy yordam ko'rsatish;

7) dars samaradorligini oshirish uchun maxsus doska va ko'rgazmalar, musiqa asboblari bilan ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, ko'zi ojiz o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, musiqiy ta'limiga bo'lgan qiziqishlari birmuncha baland. Ularga "Mutaxassislik", "Notani varaqdan o'qish", "Ovozni yo'lga qo'yish" kabi fanlardan ham darsning musiqa savodi qismini o'qituvchi mahorat bilan o'tishi kerak. Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan musiqiy dars mashg'ulotlarini o'qituvchi imkoni boricha maxsus ko'rgazmali qurollardan foydalanib, o'qitishning zamonaviy texnik vositalarini tiflopedagogik vositalar bilan bog'lagan holda olib borsa, o'quvchilarning mavzularni o'zlashtirishlaridagi muammolarini bartaraf qilishiga erishadi. O'qituvchi ularning kamchiliklaridan ko'ra ko'proq yutuqlari to'g'risida o'z ijobiy fikrlarini aytib, kelajakda ulardan ajoyib sozanda yoki xonanda, hech bo'lmaganda musiqani nozik his qiladigan, undan to'laqonli estetik zavq oladigan ko'ngil kishisi yetishib chiqishi mumkinligiga ishora qilib, motivatsiya berib borsa, bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini hamda o'z ustida yanada ko'proq ishlashlari uchun ishtiyoqni paydo qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh..M. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-5966089>
2. Baratov M.A. Defektologiya fani va uning shakli dolzarb masalalari. 18.10.2022. 2-bet. <https://zenodo.org/records/7221621>
3. Никулина Г. В. Содержание и организация образования слепых в свете ФГОС начального общего образования для обучающихся с ОВЗ: учебно-методическое пособие / Г. В. Никулина, Е. В. Замашнюк, А. В. Потемкина, Л. В. Фомичева. СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2015. (204 с.)
4. Кулаков В.Н. Формирование компенсаторных факторов у незрячих музыкантов как условие оптимизации учебного процесса: На материале работы с незрячими баянистами-аккордеонистами. Диссертация на соиск. кандидат пед. наук. Москва: 2000 (151)
5. Шкадина Л.Ю. О некоторых проблемах в обучении незрячих детей музыке. Методическая рекомендация. Чернь: 2020.
6. Калина А.Э. Музыкальное образование незрячих людей: проблемы, которые ждут своего решения. Музыкальное искусство и образование, 2014, № 4. 157-161-бетлар.
7. Антонова Ю. П., Диденко Н. С. Хрестоматия для обучения игре на фортепиано слепых и слабовидящих учащихся «Шаг за шагом» (учебно методическое пособие) – М.: Экон-Информ, 2007, – 117 с.
8. Inatullayev M.N. Yevropada ko'zi ojiz bolalarga musiqiy ta'lim berishni innovatsion metodlarini O'zbekistonga moslashtirib, amalda tatbiq etish. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. 5-to'plam 1-son mart, 2024. 58-62-b.
9. Namozova D. Astanova Z. Ko'zi ojiz yoshlarning musiqiy savodxonligini takomillashtirish yo'llari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022,VOLUME 2 | ISSUE 10/2. 436-441-b.
10. Erqo'ziyev S.I. nklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan ko'zi ojiz talabalar musiqiy idrokini shakllantirishda "gamefikatsiya" metodlaridan foydalanish samaradorligi. Journal of arts and humanities, 2024, Volume-7, Issue-5. 15-18-b.